

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/30. 12.2019. Qx.42.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

SAIDGANIYEVA SHAHODATXON TALATBEK QIZI

**AMARANT O‘SIMLIGINING ZARARLI ENTOMOFAUNASI VA
ULARGA QARSHI KURASH CHORALARINI ISHLAB CHIQISH**

06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on agricultural
sciences**

Saidganiyeva Shahodatxon Talatbek qizi.

Amarant o‘simligining zararli entomofaunasi va ularga qarshi kurash
choralarini ishlab chiqish 3

Саидганиева Шаходатхон Талатбек қизи.

Вредоносная энтомофауна растения амарант и разработка мер борьбы с
ними..... 21

Saidganiyeva Shahodatkxon Talatbek qizi.

Harmful entomofauna of the plant amaranth and development of measures to
combat it..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati.

Список опубликованных работ
List of publication works..... 43

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/30. 12.2019. Qx.42.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ANDIJON QISHLOQ XO‘JALIGI VA AGROTEXNOLOGIYALAR
INSTITUTI**

SAIDGANIYEVA SHAHODATXON TALATBEK QIZI

**AMARANT O‘SIMLIGINING ZARARLI ENTOMOFAUNASI VA
ULARGA QARSHI KURASH CHORALARINI ISHLAB CHIQISH**

06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Qx738 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psuyati.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tufliyev Nodirbek Xushvaktovich,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.

Rasmiy opponentlar:

Eshchanov Baxodir Ruzumboyevich,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent.

Yuldashev Farruxbek Ergashboyevich,
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019. Qx.42.01 -raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik Ilmiy kengashning «___» _____ 2025 yil, soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika m.f.y., O'zPITI ko'chasi PSUEITI Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (+99871) 150-61-37; e-mail paxta.uz@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy – tadqiqot institutining Axborot-iresurs markazida tanishish mumkin. (№___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika m.f.y., O'zPITI ko'chasi PSUEITI Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (+99871) 150-61-37; e-mail: paxta.uz@mail.ru)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ da tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.N.Nurmatov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, q.x.f.d., professor.

F.M.Xasanova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, q.x.f.n.,
professor.

J.X.Axmedov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD dissertatsiyani annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda dunyoda dorivor o'simliklarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Amarant XXI asrning eng qimmatli o'simligi hisoblanadi. Ozuqa miqdorining yuqori darajadali BMT ekspertlari va olimlari tomonidan tan olingan. Amarant istiqbolli ekin bo'lib, u dunyo aholisining asosiy oziq-ovqat manbai tashkil etadigan o'simliklar qatoriga kiradi. Hozirda amarant Hindiston va Xitoyda keng tarqalgan hamda Janubiy-Sharqiy Osiyo, Afrika va Yevropa mamlakatlarida yetishtiriladi. Shuningdek, FAO ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Amerikaning And mintaqasi, ya'ni Argentina, Peru, Boliviya ham ekiladi¹. Bugungi kunda nafaqat amarant yetishtirilayotgan hududlarda uchrovchi zararkunanda va kasalliklarga, balki boshqa qishloq xo'jalik ekinlaridagi zararli organizmlarga qarshi kurashda atrof-muhit uchun kam zararli bo'lgan kurash tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir.

Dunyoda amarant mahsulotlariga bo'lgan talab yuqori hisoblanib, amarant o'simligini sabzavot o'simligi sifatida, donli ekin va tijorat maqsadida yetishtirilib kelinmoqda. Amarant hosilining sifatiga, eksportbopligining kamayishiga bir qancha turdagi zararkunanda va kasalliklar salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lib, ularga qarshi kurash choralarining maqbul muddati va me'yorlarini tavsiya etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Respublikamizda so'ngi yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-apreldagi PQ-4670-son "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"² gi qarori Respublikamiz qishloq xo'jaligining yana bir tarmog'ini rivojlanishiga asos soldi. Ushbu qaror bilan yovvoyi holda o'suvchi noyob dorivor o'simliklarni saqlash, madaniy holda ko'paytirish uchun onalik maydonlari barpo etish, ko'chatchiligi va urug'chiligini tashkil etish bo'yicha ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning 2021 yil 15-iyuldagi PQ-5185-son "O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7-iyundagi 311-sonli "O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va

1 <https://cyberleninka.ru/article/n/amarant-tsennaya-ovoschnaya-i-kormovaya-kultura-mnogoplanovogo-ispolzovaniya#:~:>, <https://www.fao.org/traditional-crops/amaranth>

2 O'zRes Prezidenti "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-son qarori

texnologiyalari rivojlanishining V.«Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Amarant zararkunandalarining tur tarkibi, tarqalishi, rivojlanishi, ularning biologik xususiyatlari, zarari va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar S.V.Volovnik, Y.V.Vasileva, Atanu Seni, J.S.Tara, M.Azam, A.E. Ezeh, A.B.Ogedegbe, I.A.Aderolu, A.A.Omooloye, A.W.Ebert, T.Wu, S.Wang, G.A.Aragón, J.F. López-Olguí, B.S.Torres, A.A. Garsía, D.Clarke-Harris va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan. Amarant o‘simligini yetishtirish, yangi navlarini yaratish, ularni kimyoviy tarkibini o‘rganish bo‘yicha o‘zbek olimlari tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, amarant o‘simligini yetishtirish, yangi navlarini yaratish, amarant tarkibidan noyob biologik faol moddalarni ajratib olish va kimyoviy xossalarni aniqlash bo‘yicha M.Mo‘ydinov, J.Ziyovuddinov, N.Sh. Berdiyev, Sh.S. Olimjonov, Sh.K.Yuldashev kabi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Biroq, Respublikamizda yovvoyi va madaniy dorivor o‘simliklarda uchraydigan zararkunanda va kasalliklar bo‘yicha ayrim olimlarimiz tomonidan tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada, aynan amarant zararkunandalarining tur tarkibini aniqlash, dominant turlarini belgilash, ularning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish va ularni sonini boshqarishning ilmiy asoslari bo‘yicha tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha tadqiqotlar Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti “O‘simliklar karantini va himoyasi” kafedrasining №I-2021-3-25 “Dorivor o‘simliklarning zararli organizmlari va ularga qarshi kurash chora-tadbirlari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan (2021-2023).

Tadqiqot maqsadi. Andijon viloyati sharoitida amarantning zararli entomofaunasini o‘rganish, dominant turlarini aniqlash va qarshi kurash choralarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: amarantning asosiy zararkunandalarining tur-tarkibini, tarqalish darajalarini aniqlash va dominant turlarini belgilash;

amarantning dominant tur zararkunandalari rivojlanish bioekologiyasini o‘rganish va fenokalendarini tuzish;

amarant zararkunandalarini tabiatda boshqarib turuvchi entomofaglarini aniqlash;

amarant zararkunandalariga qarshi mikrobiologik vositalar hamda qarshi kurash usullarini biologik, xo‘jalik va iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot ob‘yekti sifatida Andijon viloyati sharoitida amarant o‘simligining dominant tur zararkunandalari lavlagi poya uzunburuni, g‘o‘za tunlami (*H.armigera*) va to‘da hosil qilmaydigan chigirtkalar majmuasi olingan.

Tadqiqot predmeti sifatida amarant o‘simligi zararkunandalarining tur-tarkibi, tarqalishi, zarari, ularning rivojlanish xususiyatlari hamda ularga qarshi

qo'llanilgan usul va vositalarning samaradorligini baholash.

Tadqiqotning usullari. Zararkunanda va entomofaglarning turlarini aniqlash uchun Г.Я.Бей-Биенко "Определитель насекомых Европейской части СССР", zararkunandalarni kuzatish va hisobga olish В.Ф.Палий "Методика изучения фауны и фенологии насекомых" uslubi bo'yicha, zararkunanda keltirgan zarari bo'yicha namunalar yig'ish va saqlash, kuzatuv natijalarini yozib borish Б.В. Добровольский "Фенология насекомых" uslubi bo'yicha, agrotoksikologik tadqiqotlar va mikrobiologik vositalarning biologik samaradorligi Sh.Т.Хо'jayev va W.S.Abbot formulasidan foydalanib aniqlangan. Tajribalardan olingan natijalar Б.А.Доспехов "Методика полевого опыта" uslubi bo'yicha matematik-statistik tahlil qilindi. Tadqiqotning iqtisodiy samaradorligi Н.Р.Гончаров uslubi asosida hisoblangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi ilk bor Andijon viloyati sharoitida amarant o'simligida 1 ta sinf, 5 ta turkum, 12 ta oila, 19 turdagi zararkunanda turlari aniqlangan. Ular orasidan dominant turlari belgilangan hamda dominant turlarining rivojlanish xususiyatlari, tarqalishi va zarari aniqlangan

amarant ekilgan maydonlarda 2 ta sinf, 6 ta turkum va 8 ta oilaga mansub, 19 turdagi entomofaglar uchrashi qayd etilib, ular ichida oddiy oltinko'z, ikki nuqtali xonqizi va yetti nuqtali xonqizining uchrash darajasi yuqoriligi aniqlangan;

dominant tur hisoblangan lavlagi poya uzunburuni (*L.subtilis*)ning Andijon viloyati sharoitida rivojlanish fenologiyasi, iqlim sharoitiga qarab 1 yilda 1-2 ta avlod berishi aniqlangan. Amarant o'simligida g'o'za tunlami (*H.armigera*) ning 3-4-avlod lichinkalari zararlashi aniqlanib, ularning fenokalendarini tuzilgan. Shuningdek, marokash chigirtkasi (*D.maroccanus*)ning to'da hosil qilmaydigan turining zarari yuqori ekanligi aniqlangan;

amarant zararkunandalari, jumladan lavlagi poya uzunburuni (*L.subtilis*)ga qarshi Belthirul n.kuk., biopreparatining 1,0;1,5 va 1,7 kg/ga sarf-me'yori, g'o'za tunlami (*H.armigera*) ga qarshi Helitec sus.k., mikrobiologik preparatining 0,4; 0,45 hamda 0,5 l/ga sarf-me'yori, to'da hosil qilmaydigan chigirtkalar majmuasiga Novakrid n.kuk., mikrobiologik preparatining 0,025; 0,04 va 0,05 kg/ga sarf-me'yoring biologik, xo'jalik hamda iqtisodiy samaradorliklari o'rganilgan va qo'llash reglamentlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Amarant o'simligi dala maydoni agrobiotsenozida tabiat, issiqqonli hayvonlar va insonlarga nisbatan zararsiz mikrobiologik preparatlar tanlab olingan hamda qo'llash muddati va me'yorlari ishlab chiqilgan;

Amarant o'simligini lavlagi poya uzunburuniga qarshi Belthirul n.kuk. mikrobiologik preparatining dala sharoitida 1,7 kg/ga, sarf-me'yorida qo'llanib, nazoratga nisbatan 3,4 - 6,9 sentnergacha qo'shimcha hosil olingan.

G'o'za tunlamiga qarshi Helitec sus.k. mikrobiologik preparatini 0,45 l/ga sarf-me'yorida qo'llanib, nazoratga nisbatan 4,9 - 8,6 sentner hamda to'da hosil qilmaydigan zararli chigirtkalar majmuasiga qarshi Novakrid n.kuk. mikrobiologik preparatini 0,04 kg/ga, sarf-me'yorida qo'llanib, nazoratga nisbatan 3,0-7,4 sentnergacha qo'shimcha hosil olingan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Laboratoriya, kichik va katta dala tajribalari uslubiy jihatdan to‘g‘ri o‘tkazilganligi, dissertatsiya ishida qo‘llanilgan uslublarning tadqiqotlarni bajarishga mosligi, olingan natijalarning Respublika va xorijiy olimlar tajribalari bilan taqqoslanganligi, ma’lumotlarning ishonchliligi hamda tadqiqot natijalarining Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, xorijiy va mahalliy ilmiy nashrlarda chop etilib, ishlab chiqarishga tavsiyalar berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati, Andijon viloyati sharoitida amarant o‘simligi agrobiotsenozida uchrovchi zararkunandalarning tur tarkibi, dominant turlari, ularning rivojlanish xususiyatlari, ko‘payish sabablari va zarar keltirish darajasidan kelib chiqib, zararlanishning oldini olish, faol himoyalash va dala sharoitida kurash tizimi yaratilgani, iqtisodiy zarar miqdor mezonlari aniqlanganligi, zararkunandalarga qarshi mikrobiologik kurash choralari va preparatlarni qo‘llash reglamentlari belgilanganligi, biologik hamda iqtisodiy samaradorligi ilmiy isbotlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, amarant o‘simligida uchrovchi zararkunandalardan lavlagi poya uzunburuniga qarshi Belthirul n.kuk., mikrobiologik preparati qo‘llanilganda 70,0-85,1 %, to‘da hosil qilmaydigan chigirtkalar majmuasiga qarshi Novakrid n.kuk. mikrobiologik preparati 88,4-95,1 % hamda g‘o‘za tunlamiga qarshi Helitec sus.k. mikrobiologik preparati qo‘llanilganda 81,6 -91,4 % biologik samaradorlikka erishilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Andijon viloyati sharoitida amarant o‘simligining asosiy zararkunandalarini o‘rganish va ularga qarshi kurash tizimini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

amarant o‘simligini yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari va klasterlar uchun “Amarant zararkunandalariga qarshi uyg‘unlashgan kurash choralari” nomli tavsiyanoma tasdiqlangan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 29 dekabrda №07/21-21-06/1553-son ma’lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma amarant yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida amarant zararkunandalariga qarshi kurash olib borishda qo‘llanma sifatida foydalanilmoqda.

amarant zararkunandalaridan g‘o‘za tunlamiga qarshi Helitec sus.k. (0,45 l/ga) mikrobiologik preparatlarini qo‘llash Andijon viloyati Andijon tumani Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Andijon tajriba stansiyasining 0,5 ga maydonida joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 29-dekabrda №07/21-21-06/1553-son ma’lumotnomasi). Natijada, g‘o‘za tunlamiga qarshi Helitec sus.k. mikrobiologik preparatini 0,4; 0,45 - 0,5 l/ga qo‘llanilganda 81,6-91,4% gacha biologik samaradorlikka erishilgan va gektaridan 4,9 - 6,3 sentnergacha hosil saqlab qolingan;

lavlagi poya uzunburuniga qarshi Belthirul n.kuk. preparatini 1,7 kg/ga me‘yorida qo‘llash Andijon viloyati Andijon tumani Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti Andijon tajriba stansiyasi 0,5 ga maydonida, Marhamat tumani “Feruz” f/x 4,0 ga maydonida va Andijon tajriba-ko‘rgazma maydonida 4,0 ga jami, 8,5 ga maydonga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi

vazirligining 2023 yil 29-dekabrda №07/21-21-06/1553-son ma'lumotnomasi). Natijada, lavlagi poya uzunburuniga qarshi Belthirul n.kuk. preparati dala sharoitida 70,0-85,1%, biologik samaradorlik ko'rsatib, nazorat variantiga nisbatan 27 977,0-45 784,0 ming so'm/ga iqtisodiy samaradorlikga erishilgan.

To'lda hosil qilmaydigan chigirtkalar majmuasiga qarshi Novakrid n.kuk. mikrobiologik preparatini 0,04 kg/ga me'yorda qo'llash Andijon viloyati Marhamat tumani "Feruz" f/x 4,0 ga, Andijon tajriba-ko'rgazma maydonining 4,0 ga, jami 8,0 ga maydonda joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2023 yil 29-dekabrda №07/21-21-06/1553-son ma'lumotnomasi). Natijada 88,4-95,1 % biologik samaradorlik aniqlanib, nazorat variantiga nisbatan rentabelligi 683-718 % ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarning aprotatsiyasi: Dala tajribalari har yili Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari institutida tuzilgan maxsus aprotatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 5 ta, shu jumladan 2 ta xalqaro, 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarida hamda 5 ta maqola xalqaro va respublika konferensiyalar to'plamlarida, 1 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti hamda predmetlari tavsiflangan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiqot usullari va uslublari, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarini aprotatsiya ko'rigida ijobiy baholanganligi, tadqiqot natijalari yuzasidan nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning «**Amarant o'simligining yetishtirishning bugungi holati, unda uchraydigan zararkunandalarning tarqalishi, bioekologik xususiyatlari va ularga qarshi kurash usullari tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi yuzasidan xorijiy va mahalliy sharoitlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari sharhlangan. Shuningdek, amarant o'simligi zararkunandalarning o'rganilganlik darajasi, tarqalishi, zarari, zararkunandalarning turlari, sistematikasi va ularning biologik xususiyatlari hamda ularga qarshi kurash choralari yuzasidan ma'lumotlar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o'tkazish sharoiti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida Andijon viloyatidagi tadqiqot olib borilgan hududlarining tuproq,


iqlim sharoitlari tavsifi keltirilgan.

2021–2023 yillar davomida o‘tkazilgan tadqiqotlar umumiy entomologiya hamda qishloq xo‘jalik entomologiyasida qo‘llaniladigan usul va uslublar yordamida bajarilgan. Tadqiqotlar Andijon viloyatining Andijon hamda Marhamat tumanlaridagi fermer xo‘jaliklarida o‘tkazilgan.

Amarant zararkunanda va entomofaglarining turlarini aniqlash uchun G.Ya.Bey-Biyenko (Определитель насекомых Европейской части в II-V том), zararkunandalarni kuzatish va hisobga olish V.F. Paliy (Методика изучения фауны и фенологии насекомых) uslubi bo‘yicha, zararkunanda keltirgan zarari bo‘yicha namunalar yig‘ish va saqlash, kuzatuv natijalarini yozib borish B.V.Dobrovolskiy (Фенология насекомых) uslubi bo‘yicha, agrotoksikologik tadqiqotlar va mikrobiologik vositalarning biologik samaradorligi Sh.T.Xo‘jayev va W.S.Abbot formulasidan foydalanib o‘rganildi. Tajribalardan olingan natijalar B.A.Dospexov (Методика полевого опыта) uslubi bo‘yicha matematik-statistik tahlil qilindi. Tadqiqotning iqtisodiy samaradorligi N.R.Goncharov uslubi asosida hisoblanilgan.

Dissertatsiyaning «**Noan’anaviy amarant o‘simligi zararkunandalarining monitoringi**» deb nomlangan uchinchi bobida Andijon viloyati sharoitida amarant zararkunandalarining tarqalishi, tur tarkiblarini aniqlash, dominant turlarini belgilash, asosiy zararkunandalarining biologiyasi va ekologiyasini o‘rganish, amarant o‘simligining asosiy zararkunandalarining rivojlanish fenologiyasini tuzish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari keltirilgan. Andijon viloyati sharoitida amarant agrobiotsenozida uchraydigan zararkunandalarining tur tarkibini o‘rganish uchun 2021–2023 yillarda Andijon viloyatining Andijon hamda Marhamat tumanlarida amarant o‘simligi yetishtiriladigan fermer xo‘jaliklarida zararkunandalar sonini aniqlash va ularning namunalarini yig‘ish yo‘nalishli-kuzatuv usullari asosida bahor, yoz va kuz oylarida olib borilgan.

Andijon viloyati sharoitida amarant agrobiotsenozida 1 ta sinf, 5 ta turkum va 12 ta oilaga mansub 19 turdagi zararkunandalar uchrashi aniqlangan (1-rasm).



1-rasm. Andijon viloyati sharoitida amarant o‘simligi zararkunandalarining tur tarkibi.
(Andijon viloyati 2021-2023 yy.).

1-jadval.

Andijon viloyati sharoitida amarant zararkunandalarining uchrashi, dominant turlarining zararlash darajasi (Andijon viloyati, 2021 – 2023 yy.).

№	Zararkunandaning o'zbekcha nomi	Lotincha nomi	Uchrash darajasi
1.	Lavlagi shirasi	<i>Aphis fabae</i>	+
2.	Akatsiya yoki beda shirasi	<i>Aphis craccivora</i> Koch.	+
3.	Lavlagi poya uzunburuni	<i>Lixus subtilis</i>	+++
4.	Lavlagi oddiy uzunburuni	<i>Asproparthenis punctiventris</i> <i>Germ</i>	++
5.	<i>Asproparthenis obsoletefasciata</i>	<i>Asproparthenis obsoletefasciata</i>	++
6.	Lavlagi burgasi	<i>Chaetocnema concinna</i> Marsh.	++
7.	Shilimshiq qurt	<i>Lema melonopus</i>	++
8.	Yashil bronza qo'ng'izi	<i>Potosia marginicollis</i>	+
9.	Cho'tir bronza qo'ng'izi	<i>Oxythyrea cinctella</i>	+
10.	G'o'za tunlami	<i>Heliothis armigera</i> Hb	+++
11.	O'tloq kuyasi	<i>Loxostege sticticalis</i>	++
12.	Marokash chigirtkasi	<i>Doclostaurus maroccanus</i> Thunb.	+++
13.	Poliz chigirtkasi	<i>Heteracris pterosticha</i>	+
14.	Dala chirildog'i	<i>Gryllus campestris</i>	+
15.	Yashil temirchak	<i>Tettigonia viridissima</i>	+
16.	Qizil qandala	<i>Pyrrhocoris apterus</i>	++
17.	Beda qandalasi	<i>Adelphocoris lineolatus</i>	+
18.	Dala qandalasi	<i>Lygus pratensis</i>	++
19.	Zararli xasva	<i>Eurygaster integriceps</i>	+

+++ - juda ko'p uchraydi, ++ - o'rtacha uchraydi, + - kam uchraydi

Ulardan Tengqanotlilar (*Homoptera*) turkumi, 1 oilasiga mansub, 2 turdagi

zararkunanda, Tangachaqanotlilar (*Lepidoptera*) turkumi, 2 ta oilaga mansub, 2 turdagi zararkunanda, To'g'riqanotlilar (*Orthoptera*) turkumi, 3 ta oilaga mansub, 4 turdagi zararkunanda Yarim qattiqqanotlilar yoki qandalalar (*Hemiptera*) turkumi 3 ta oilaga mansub 4 turdagi zararkunandalar tarqaganligi aniqlangan (1- jadval).

Shuningdek, Qattiqqanotlilar (*Coleoptera*) turkumi amarant agrobiotsenozida eng keng tarqalgan turkum hisoblanib, 4 ta oilaga mansub, 7 turdagi zararkunanda uchrashi qayd etilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida amarantning yer ustki qismida hasharotlar (*Insecta*) sinfi, Qattiqqanotlilar (*Coleoptera*) turkumi, uzunburunlar (*Curculionidae*) oilasiga mansub lavlagi poya uzunburuni (*Lixus subtilis*), Tangachaqanotlilar (*Lepidoptera*) turkumining tunlamlar (*Noctuidae*) oilasiga mansub go'za tunlami (*Heliothis armigera* Hb.), to'g'riqanotlilar (*Orthoptera*) turkumi, haqiqiy chigirtkalar *Acrididae* oilasiga mansub marokash chigirtkasining to'da hosil qilmaydigan shakli (*D.maroccanus*) Andijon viloyatining deyarli barcha amarant ekilgan maydonlarda uchrash darajasi hamda zarari yuqori deb baholanib, dominant zararkunanda tur sifatida qayd etilgan.

To'g'riqanotlilar (*Orthoptera*) turkumi, *Acrididae* oilasiga mansub marokash (*D.maroccanus*), poliz chigirtkalari, dala chirildog'i, yashil temirchaklarning zarari Andijon viloyatining Marhamat tumani hududlarida keng tarqalganligi qayd etilgan.


Andijon viloyatidagi deyarli barcha amarant yetishtiruvchi maydonlarda lavlagi poya uzunburuni, g'o'za tunlami hamda zararli chigirtkalar majmuasining zarari yuqori bo'lib, bu zararkunandalar barg va silosning sifatiga hamda uning tarkibidagi organik moddalariga, saqlash muddatini qisqarishiga ta'sir ko'rsatayotganligi ilmiy tadqiqotlarimizda aniqlandi. Bugungi kunda amarant o'simligining zararkunandalardan to'liq nobud bo'lishi adabiyotlarda qayd etilmagan. Hasharotlar amarant barglari va urug'larni bir xil darajada zararlaydi. Amarant o'simligining vegetatsiya jarayonida zararkunandalarning kuchli zararlanishi natijasida o'simlik hosilini 40 foizini nobud bo'lishiga olib kelgan.

Amarant o'simligida so'ruvchi hasharotlar o'simlikni zararlash va uchrash darajasi kemiruvchi zararkunandalarga nisbatan kam ekanligi tadqiqotlarda aniqlandi. Kemiruvchi zararkunandalar o'simlikning fotosintez jarayonini cheklab, o'sish jarayonini sekinlashtirishi, so'ruvchi zararkunandalar odatda o'simlikning ma'lum qismiga zarar yetkazib, o'simlikni to'liq nobud bo'lishga olib kelmasligi qayd etildi. Amarant o'simligi hosili kemiruvchi zararkunandalar hujumi natijasida 30-50% gacha, so'ruvchi zararkunandalar esa 10-20% gacha kamaytira olishi tadqiqotlarda aniqlangan.

Dissertatsiyaning «**Amarant zararkunandalari sonini boshqarishning ilmiy asoslari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida amarant agrobiotsenozidagi zararkunandalarning tabiiy entomofaglarining turlari va uchrash darajasi, amarant zararkunandalari qarshi mikrobiologik vositalardan foydalanish imkoniyatlari va qo'llash reglamentlarini belgilash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Andijon viloyatida 2021-2023-yillarda amarant zararkunandalari va entomofaglarini tur tarkibini o'rganish bo'yicha yo'nalishli kuzatuvlar olib borilgan

hamda to‘plangan ma’lumotlar tahlili natijasida 2 ta sinf, 5 ta turkum va 8 ta oilaga mansub, 19 turdagi entomofaglar uchrashi aniqlangan (2- rasm).



2-rasm. Andijon viloyati sharoitida amarant zararkunandalari entomofaglarining tur tarkibi (Andijon viloyati, 2021 – 2023 yy.).

Amarant o‘simligi agrobiotsenozida eng keng tarqalgan turkum pardaqaotlilar (*Nymenoptera*) turkumiga mansub 6 turdagi entomofaglar uchrashi kuzatilgan. Shuningdek O‘rgimchaklar (*Araneae*) turkumiga mansub, 4 turdagi o‘rgimchaklar, To‘rqanotlilar (*Neuroptera*) turkumiga mansub, 2 turdagi entomofaglar, Ikkiqanotlilar yoki pashshalar (*Diptera*) turkumiga mansub, 2 turdagi entomofag, Qattiqqanotlilar yoki qo‘ng‘izlar (*Coleoptera*) turkumi bo‘lib, ushbu turkumga mansub, 5 turdagi entomofaglar keng tarqalganligi o‘rganildi. Bular ichida ahamiyati jihatidan Koksineidlilar (*Coccinellidae*) oilasi vakillari bo‘lib, ushbu oilaga mansub yetti nuqtali, ikki nuqtali xonqizi, ikki nuqtali xilokorus kabilar, O‘rgimchaksimonlar (*Arachnida*) sinfi O‘rgimchaklar (*Araneae*) turkumi *Agriope lobata*, *Neossona adianta*, filodromid o‘rgimchagi (*Philodromidae sp.*), oddiy senokosets o‘rgimchagi (*Phalangium opillio*) turlari, To‘rqanotlilar (*Neuroptera*) turkumi Oltinko‘zlar (*Chrysopidae*) oilasi vakillari, Pardaqaotlilar (*Hymenoptera*) turkumi vakillarining uchrash darajasi yuqori ekanligi qayd etildi hamda ushbu entomofaglar amarant zararkunandalari miqdorini ma’lum darajada kamayishida ahamiyatli ekanligi kuzatilgan (2- rasm).

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 19 turdagi entomofaglarda 3 turdagi ya’ni: oddiy oltinko‘z, ikki va yetti nuqtali xonqizini uchrash darajasi yuqori deb baholandi. Entomofaglar amarantda uchrovchi so‘ruvchi zararkunandalarning miqdorini kamaytirishda o‘rni yuqori ekanligi aniqlanib, 1 ta oltinko‘z 40-50 dona lavlagi shirasi hamda akatsiya shirasining lichinka va imagolari bilan oziqlanishi

tadqiqotlarda qayd etildi. Amarantda o'simlik qandalalarining uchrash darajasi o'rtacha va kam miqdorda qayd etilgan bo'lib, ushbu qandalalarning miqdorini kamaytirishda o'rgimchaklar, oltinko'zlar va trixogramma kabi entomofaglarining o'rnini yuqoriligi aniqlangan.

Tadqiqotda amarantda uchrovchi kemiruvchi zararkunandalarni sonini boshqarishda o'rgimchaklar, yaydoqchilar, xonqizi va oltinko'zlarning samaradorligi o'rganilib, ushbu entomofaglar o'rta va kam miqdorda uchrovchi zararkunandalarga nisbatan samarasi o'rtacha, dominant tur zararkunandalarning sonini boshqarishda esa samarasi kam ekanligi aniqlangan.

Dominant tur zararkunandalar hisoblangan lavlagi poya uzunburunini miqdori kamaytirishda trixogramma, oddiy oltinko'z va o'rgimchaklar ahamiyatli hisoblanib, ma'lum miqdorda ularning soni qisqartiradi, lekin zararkunanda asosan o'simlikning ichini zararlagani uchun ushbu entomofaglarining samarasi past ekanligi qayd etilgan.

Tabiatda marokash chigirtkasining entomofaglari yirtqich o'rgimchaklar, qushlar va taxin pashshalar hisoblanib, ushbu entomofaglar marokash chigirtkasining sonini kamaytirishda ma'lum miqdorda ahamiyatli bo'lib, tadqiqotlarda ularning samaradorligi o'rtacha ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotlarda g'oz tunlamiga qarshi tabiatda uchrovchi entomofaglarining uzviy bog'liqligi o'rganilganda oltinko'z lichinkalari tunlamning tuxum va yosh lichinkalarini faol iste'mol qilib, zararkunanda sonini kamaytirishda 40-55 % gacha, brakonlar tunlam lichinkalariga tuxum qo'yib, ularning miqdorini 45-60 % gacha, o'rgimchak va qushlar tunlam tuxumi, lichinka va imagolari bilan oziqlanib, ularning sonini 20-40 % gacha kamaytirishi aniqlangan.

O'zbekistonda ilk marotaba uzunburunlarga qarshi ekologik xavfsiz kurash tizimiga imkoniyat yaratish maqsadida Ispaniyaning "Probelte" kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan Belthirul (n.kuk.) mikrobiologik preparatini Andijon viloyatida laboratoriya hamda dala sharoitlarida biologik samarasini o'rganish bo'yicha tajribalar olib borilgan. Belthirul (n.kuk.) biopreparatining tarkibida *Bacillus thuringiensis* PB 54 shtammi mavjud bo'lib, Biopreparat tarkibida 32% *Bacillus thuringiensis* va 68% qo'shimcha moddalardan tashkil topgan. *Bacillus thuringiensis* (Bt.) barcha joyda tarqalgan gramm-musbat, tayoqchasimon va sporali bakteriya bo'lib, ushbu bakteriya turi tuproq, suv, o'lik hasharotlar, silos changlari, bargli daraxtlar barglari, turli xil ignabargli daraxtlar va turli xil ekotizimlardan hasharotxo'r sutemizuvchilar to'qimalaridan ajratilgan.

Bundan xulosa shuki, mikrobiologik preparatni may oyining uchinchi o'n kunligida qo'llanilganda havoning harorati o'rtacha 23 – 28° C va nisbiy namlik 60 – 65% ni tashkil etganligi sababli, bu davr mikrobiologik preparatlarni qo'llash uchun qulay davr ekanligi qayd etilgan. Dala tajribalarida preparat bilan ishlov berilgandan so'ng 7-kunida kuzatilganda lichinkalar qizgish-qoramtir tusga kirganligi va nobud bo'lganligi kuzatilgan. Dala sharoitida biologik samaradorlik 70,0% dan 85,1% gachani tashkil etgan hamda tajriba natijalariga ko'ra kelgusida ekologik xavfsiz mahsulot olish uchun ushbu biopreparatni amarantda uzunburunlarga qo'llashga tavsiya etilgan (2- jadval).

2-jadval

Amarant o‘simligida uzunburunlarga qarshi Belthirul mikrobiologik preparatining biologik samaradorligi. Andijon tumani SPKITI Andijon tajriba stansiya, 200 l/ga (2021-2023 yy, may).

Variantlar	Sarf-me‘yori, kg/ga	1m ² maydondagi zararkunandalarning o‘rtacha soni, dona				
		Ishlovgacha zararkunandalar soni/dona	Ishlovdan <i>n</i> kundan keyin			
			3	7	14	21
Belthirul n.kuk. (andoza)	1,5	4,8	3,4	1,5	1,1	0,8
Belthirul n.kuk. (tajriba)	1,0	4,0	3,5	2,0	1,5	1,2
Belthirul n.kuk. (tajriba)	1,7	4,7	3,1	1,4	0,8	0,7
Nazorat (ishlovsiz)	-	4,1	4,1	4,1	4,2	4,2
Biologik samaradorlik, %						
Belthirul n.kuk. (andoza)	1,5	4,8	29,1	68,7	77,0	83,3
Belthirul n.kuk. (tajriba)	1,0	4,0	12,5	50,0	62,5	70,0
Belthirul n.kuk. (tajriba)	1,7	4,7	34,0	70,7	82,9	85,1
Nazorat (ishlovsiz)	-	4,1	0,0	0,0	0,0	0,0

Shuningdek, amarant o‘simligidagi to‘da hosil qilmaydigan zararli chigirtkalar majmuasiga qarshi Fransiyaning «Groupe Elephant vert» kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan Novakrid n.kuk. mikrobiologik preparati qo‘llanildi. Ushbu biopreparat *Metarrhizium acridum* EVCH077 shtammi asosida yaratilgan. *Metarrhizium acridum* – Askomitsetlar kenja sinfi, *Hypocreales* turkumi, *Clavicipitaceae* oilasiga mansub zamburug‘ hisoblanadi. Ushbu zamburug‘ oqqanot, uzunburunlar, trips va kanalarga qarshi samarali hisoblanadi. Novakrid biopreparati tarkibida $2,27 \times 10^{10}$ - 5×10^{10} gr quruq spora mavjud. Novakrid n.kuk. biopreparatini 3 xil sarf-me‘yorlarida, ya‘ni andozada 0,05 kg/ga, 1-tajribada 0,025 kg/ga va 2-tajribada 0,04 kg/ga sarf-me‘yorida qo‘llanildi. Novakrid n.kuk. biopreparatini 0,025:0,04:0,05 kg/ga sarf-me‘yorlarida qo‘llanilganda 88,4-95,1 % biologik samaradorlik qayd etilgan (3- jadval).

3-jadval

Amarant maydonlarida uchragan to‘da hosil qilmaydigan chigirtkalar majmuasiga qarshi sinalgan biopreparatlarning biologik samaradorligi
(Marhamat tumani Andijon tajriba-ko‘rgazma maydoni Motorli qo‘l apparati, 200 l/ga. 2021-2023 yy, may).

Variantlar	Sarf-me‘yori, kg/ga	1m ² maydondagi zararkunandalarning o‘rtacha soni, dona							
		Ishlovga-cha zararkunandalar soni/dona	Ishlovdan <i>n</i> kundan keyin						
			1	3	5	7	9	11	15
Novakrid n.kuk. (andoza)	0,05	10,3	10,2	10,1	9,4	5,9	3,5	0,9	0,5
Novakrid n.kuk. (tajriba)	0,025	12,1	12,1	11,9	11,2	7,9	5,4	1,9	1,4
Novakrid n.kuk. (tajriba)	0,04	11,0	11,0	10,8	10,1	7,0	4,5	1,2	0,7
Nazorat (ishlovsiz)	-	11,9	11,9	11,7	11,1	10,9	10,7	10,5	10,0
Biologik samaradorlik, %									
Novakrid n.kuk. (andoza)	0,05	10,3	0,9	1,9	8,7	42,7	66,0	91,2	95,1
Novakrid n.kuk. (tajriba)	0,025	12,1	0,0	1,6	7,4	34,7	55,3	84,3	88,4
Novakrid n.kuk. (tajriba)	0,04	11,0	0,0	1,8	8,1	36,3	59,0	89,0	93,6
Nazorat (ishlovsiz)	-	11,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Amarandagi g‘o‘za tunlamiga qarshi Helitec va Biovert SP mikrobiologik preparatlari turli sarf-me‘yorlarida qo‘llanildi. Helitec (sus.k.) Kenya Biologics Ltd. kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Helitec (sus.k.) bir litr eritmasining tarkibida 5×10^{12} poliedroz (NPV) saqlovchi vosita bo‘lib, bakuloviruslar oilasiga mansub poliedrozlar kenja sinfiga oid virusdir. Ushbu mikrobiologik preparat o‘simlikka sepilganda, virus zararkunandaning tanasida ko‘payib, lichinkalarni nobud bo‘lishiga olib keladi. Bo‘shashgan lichinkalar o‘z-o‘zidan yorilib, boshqa virus zarrachalarini boshqa hasharot lichinkalari tomonidan yutish mumkin bo‘lgan tashqi muhitga chiqaradi.

Biovert SP (n. kuk.) “Sibbiofarm” korxonasi (Rossiya) ishlab chiqarilgan mikrobiologik preparat hisoblanadi. Ushbu preparatning faol moddasi *Lecanicillium lecanii* (= *Verticillium lecanii*) B-80 shtammi bo‘lib, titrdagi tirik hujayralar, biologik faolligi (EA/mg) titrda 1×10^6 sporelar mavjud.

Lecanicillium lecanii (= *Verticillium lecanii* (Zimmerman) Viegas) *Deuteromycotina*, *Hyphomycetes*, *Moniliales*, *Moniliaceae* turlariga tegishli bo‘lib,

hozirgacha o‘simliklarni biologik himoya qilishda entomopatogen zamburug‘lardan keng foydalaniladi. Ushbu zamburug‘ *Lepidoptera*, *Coleoptera*, *Hemiptera* turkumiga mansub hasharotlarni va nematodalarni zararlashi mumkin. Hasharotlarda entomopatogen zamburug‘ning sporalari unib chiqadi va zamburug‘li gifa epidermisga kirib, gemokoelga yetguncha to‘qimalar va organlarga kirib boradi. Gifa gemolimfa bilan aloqa qilganda, hasharotlarning himoya tizimi detoksifikatsiya qiluvchi va himoya qiluvchi fermentlarni zararlaysdi.

G‘o‘za tunlamiga qarshi esa Helitec sus.k. mikrobiologik preparatini 3 xil sarf-me‘yorida, ya‘ni andozada 0,5 l/ga sarf-me‘yorida, 1-tajribada 0,4 l/ga sarf-me‘yorida hamda 0,45 l/ga sarf-me‘yorida qo‘llanildi. Helitec sus.k. mikrobiologik preparatini 0,4-0,45-0,5 l/ga sarf-me‘yorlarida qo‘llanilganda 81,6-91,4% biologik samaradorlikka erishilgan (4-jadval).

4-jadval

Amarant o‘simligida uchrovchi g‘o‘za tunlamiga qarshi mikrobiologik preparatlarning biologik samaradorligi (Andijon tumani SPKITI Andijon tajriba stansiyasidai sinov maydoni. Motorli qo‘l apparati, 200 l/ga. 2021-2023 yy, iyun).

Variantlar	Sarf-me‘yori, kg/ga, l/ga	100 ta o‘simlikdagi zararkunandalarning o‘rtacha soni, dona				
		Ishlovgacha qurtlar ning soni/dona	Ishlovdan <i>n</i> kundan keyin			
			1	3	5	7
Helitec sus.k. (andoza)	0,50	9,2	6,9	3,3	2,2	0,8
Helitec sus.k. (tajriba)	0,40	8,6	6,4	3,7	2,8	1,6
Helitec sus.k. (tajriba)	0,45	8,7	6,2	3,5	2,5	1,1
Biovert SP n.kuk. (tajriba)	7,0	7,9	7,5	6,2	5,1	4,3
Biovert SP n.kuk. (tajriba)	7,5	9,1	8,3	5,8	4,9	4,0
Biovert SP n.kuk. (tajriba)	8,0	9,0	8,2	5,7	4,1	3,0
Nazorat (ishlovsiz)	-	8,6	8,5	8,5	8,6	8,7
Biologik samaradorlik, %						
Helitec sus.k. (andoza)	0,50	9,2	24,1	63,7	76,0	91,4
Helitec sus.k. (tajriba)	0,40	8,6	24,7	56,5	67,4	81,6
Helitec sus.k. (tajriba)	0,45	8,7	27,9	59,3	71,3	87,5
Biovert SP n.kuk. (tajriba)	7,0	7,9	3,9	20,6	35,4	46,2
Biovert SP n.kuk. (tajriba)	7,5	9,1	7,7	35,9	45,5	56,5
Biovert SP n.kuk. (tajriba)	8,0	9,0	7,8	36,7	54,4	67,0
Nazorat (ishlovsiz)	-	8,6	0,0	0,0	0,0	0,0

Ammo, Biovert SP n.kuk. mikrobiologik preparati g'ozga tunlamiga qarshi 3 xil sarf-me'yorida, ya'ni 7,0; 7,5 kg/ga hamda 8,0 kg/ga qo'llaganimizda, 3 ta variantda ham biologik samaradorlik qoniqarsiz bo'lib, g'ozga tunlamining lichinkalariga qarshi 45,6 – 66,6% biologik samaradorlikka erishilganligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlarda qo'llanilgan usul va vositalarning xo'jalik va iqtisodiy samaradorligi**» deb nomlangan beshinchi bobida 2021 – 2023 yillar davomida olib borilgan tadqiqotlarning variantlar kesimida iqtisodiy samaradorligi bayon etilgan.

Amarantda uchrovchi go'za tunlamiga qarshi qo'llanilgan Helitec sus.k. 0,4-0,45-0,5 l/ga sarf-me'yorlarida va Biovert SP n.kuk. 7,0-7,5-8,0 kg/ga mikrobiologik preparatlar qo'llanilgan variantlarda nazoratga nisbatan saqlab qolingani hosil 0,6-6,1 s/ga ni qo'shimcha hosilning qiymati 2 100,0-23 790,0 ming so'm/ga ni tashkil qilgan.

Nazoratga nisbatan iqtisodiy samaradorlik 8 236,0 ming-37 864,0 ming so'm/ga ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba variantlarida 86 800,0-117 780,0 ming so'm/ga ni tashkil etgan.

Sarflangan bir so'mni oqlanishi nazoratga nisbatan 6,40-8,09 martani, himoya usulining foydaliligi (rentabelligi) 640-809 % ni tashkil qilgan.

Tajriba tahlil natijalariga ko'ra Helitec sus.k. 0,45 l/ga sarf-me'yorida qo'llanilganda biologik, xo'jalik va iqtisodiy tomondan yuqori deb baholangan.

Amarantda uchrovchi lavlagi poya uzunburuniga qarshi qo'llanilgan Belthirul n.kuk. 1,0-1,5-1,7 kg/ga sarf-me'yorlarida mikrobiologik preparat qo'llanilgan variantlarida nazoratga nisbatan saqlab qolingani hosil 4,2-8,4 s/gani qo'shimcha hosilning qiymati 15 960,0-32 760,0 so'm/ga ni tashkil qilgan. Nazoratga nisbatan iqtisodiy samaradorlik 27 960,0-45 916,0 ming so'm/ga ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba variantlarida 90 746,0-108 696,0 ming so'm/ga ni tashkil etgan. Sarflangan bir so'mni oqlanishi nazoratga nisbatan 7,42-8,02 martani, himoya usulining foydaliligi (rentabelligi) 742-802 % ni tashkil qilgan.

Tajriba tahlil natijalariga ko'ra Belthirul n.kuk. 1,7 kg/ga sarf-me'yorida qo'llanilganda biologik, xo'jalik va iqtisodiy tomondan yuqori deb baholangan.

Amarantda uchrovchi zararli chigirtkalarga qarshi qo'llanilgan Novakrid n.kuk., 0,025-0,04 kg/ga sarf-me'yorlarida mikrobiologik preparat qo'llanilgan variantlarida nazoratga nisbatan saqlab qolingani hosil 3,9-6,6 s/ga.,ni qo'shimcha hosilning qiymati 14 040,0-23 760,0 so'm/ga ni tashkil etgan.

Nazoratga nisbatan iqtisodiy samaradorlik 18 743,0 - 20 265,0 ming so'm/ga.,ni tashkil etgan bo'lsa, tajriba variantlarida 95 040,0-104 760,0 ming so'm/ga.,ni tashkil etdi. Sarflangan bir so'mni oqlanishi nazoratga nisbatan 6,83-7,18 martani, himoya usulining foydaliligi (rentabelligi) 683-718 % ni tashkil qilgan. Tajriba tahlil natijalariga ko'ra Novakrid n.kuk. 0,04 kg/ga sarf-me'yorida qo'llanilganda biologik, xo'jalik va iqtisodiy tomondan yuqori deb baholangan.

XULOSALAR

1. Andijon viloyati sharoitida amarant o'simligi agrobiotsenozida jami 1 ta sinf, 5 ta turkum va 13 ta oilaga mansub 19 turdagi zararkunandalar uchrashi qayd etildi.

2. Andijon viloyati sharoitida amarant o'simligining dominant zararkunandalari turlariga: hasharotlar sinfining vakillaridan lavlagi poya uzunburuni (*L.subtilis*), marokash chigirtkasining (*D.maroccanus*) to'da hosil qilmaydigan shakli hamda g'o'za tunlami (*H.armigera*) ekanligi belgilandi.

3. Andijon viloyati iqlim sharoitiga qarab lavlagi poya uzunburuni iqlim sharoitiga qarab 1 yilda 1-2 ta avlod berishi aniqlandi, to'da hosil qilmaydigan zararli chigirtkalar 1 ta avlod berishi hamda g'o'za tunlamining 3-4-avlod lichinkalari zarar keltirishi aniqlandi.

4. Tadqiqot natijalariga ko'ra, poya uzunburunining lichinkasi o'simlik poyasini ichidan kuchli kemirib zarar keltirishi iyun oyining 1-dekadasidan iyul oyining 1-dekadasiga qadar davom etishi aniqlandi. G'o'za tunlami lichinkalarini 2-3 avlodi amarant o'simligini gullash davridan to'g'acha hosilni yig'ib olish davriga qadar zararlashi qayd etildi.

5. Zararli chigirtkalarining to'da hosil qilmaydigan majmuasi amarant o'simligi unib chiqishdan to'g'acha hosilni yig'ish davriga qadar zararlashi aniqlanib, asosan aprel oyidan iyun oyiga qadar amarant barglarini kuchli zararlangani tajribalarda qayd etildi.

6. Andijon viloyati, Andijon va Marhamat tumanlarida amarant o'simligida entomofaglarining 2 ta sinf, 6 ta turkumga mansub, 19 turi entomofaglar aniqlandi. Ammo, ushbu entomofaglarining amarant o'simligidagi dominant zararkunandalar sonini kamaytirish qobiliyati juda pastligi aniqlandi.

7. Lavlagi poya uzunburuniga qarshi qo'llanilgan Belthirul n.kuk. mikrobiologik preparatini dala sharoitida 1,0-1,5-1,7 kg/ga sarf-me'yorlarda qo'llanilganda biologik samaradorligi o'rtacha 70,0-85,1% ni tashkil qildi.

8. G'o'za tunlamiga qarshi qo'llanilgan Helitec sus.k. mikrobiologik preparatining dala sharoitida 0,4-0,45-0,5 l/ga sarf-me'yorlarda qo'llanilganda biologik samaradorligi 81,6-91,4 % ni, to'da hosil qilmaydigan zararli chigirtkalar majmuasiga qarshi qo'llanilgan Novakrid n.kuk. mikrobiologik preparatini dala sharoitida 0,025-0,04-0,05 kg/ga qo'llanilganda, o'rtacha biologik samaradorligi 88,4-95,1 % ni tashkil qildi.

9. Lavlagi poya uzunburuniga qarshi qo'llanilgan Belthirul n.kuk. 1,7 kg/ga – 31,8 s/ga, g'o'za tunlamiga qarshi Helitec sus.k 0,45 (l/ga) – 29,6 s/ga hamda to'da hosil qilmaydigan zararli chigirtkalar majmuasiga qarshi Novakrid n.kuk. 0,04 kg/ga qo'llanilganda - 28,6 s/ga hosil saqlab qolindi. Tajriba variantlarida bir so'mni oqlanishi 7,18-8,09 martani, himoya usulining rentabelligi 718-809% ni tashkil qildi.

10. Amarant o'simligida agrotexnik tadbirlardan o'simlikni yagonalash hamda begona o'tlarga qarshi kurash tadbirlari o'z muddatlarida olib borilsa zararkunandalarning sonini 10-20 % ga kamayishiga erishiladi;

amarant o'simligi asosiy ekin sifatida erta muddatlarda ekilsa takroriyga nisbatan zararkunandalar bilan kam miqdorda zararlanadi;

amarantdan sifatli va mo‘l hosil olish maqsadida lavlagi poya uzunburuniga qarshi Belthirul mikrobiologik preparatini 1,7 kg/ga sarf-me’yorda, to‘da hosil qilmaydigan zararli chigirtkalar majmuasiga qarshi Novakrid mikrobiologik preparatini 0,04 kg/ga sarf-me’yorda, g‘o‘za tunlamiga qarshi Helitec mikrobiologik preparatini 0,45 l/ga sarf-me’yorida qo‘llash tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ СЕЛЕКЦИИ,
СЕМЕНОВОДСТВА И АГРОТЕХНОЛОГИЙ ВЫРАЩИВАНИЯ
ХЛОПКА**

**АНДИЖАНСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И
АГРОТЕХНОЛОГИИ**

САИДГАНИЕВА ШАХОДАТХОН ТАЛАТБЕК КИЗИ

**ВРЕДНОСНАЯ ЭНТОМОФАУНА РАСТЕНИЯ АМАРАНТ И
РАЗРАБОТКА МЕР БОРЬБЫ С НИМИ**

06.01.09 – Защита растений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2021.1.PhD/Qx738

Диссертация выполнена в Андижанском институте сельского хозяйства и агротехнологий.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.psuyati.uz) и информационно-образовательном портале «ZioNet» (www.zionet.uz).

Научный руководитель: **Туфлиев Нодирбек Хушвактович,**
доктор сельскохозяйственных наук, профессор.

Официальные оппоненты: **Эшчанов Баходир Рузумбоевич,**
доктор сельскохозяйственных наук, доцент.
Юлдашев Фаррухбек Эргашбоевич,
доктор философии по сельскохозяйственным наукам,
доцент.

Ведущая организация: **Тошкентский государственный аграрный университет.**

Защита диссертации доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам состоится «_____» _____ 2025 года в _____ часов на заседании разового Научного совета DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 при Научно-исследовательском институте селекции, семеноводства и агротехнологии выращивания хлопка (Адрес: 111202, Ташкентская область, Кибрайский район, МСГ Ботаника, ул. УзНИИХ., НИИССАВХ. Тел.: (99878) 150-62-84, факс: (99871) 150-61-37, e-mail: paxta.uz@mail.ru

С диссертацией доктора философии (PhD) по сельскохозяйственным наукам можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института селекции, семеноводства и агротехнологии выращивания хлопка (зарегистрирована за номером _____). (Адрес: 111202, Ташкентская область, Кибрайский район, МСГ Ботаника, ул. УзНИИХ., НИИССАВХ. Тел.: (99878) 150-62-84, факс: (99871) 150-61-37, e-mail: paxta.uz@mail.ru

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки № _____ от «_____» _____ 2025 года).

Ш.Н Нурматов,
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней, д.с.х.н.,
профессор.

Ф.М.Хасанова,
Ученый секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней, к.с.х.н.,
профессор.

Ж.Х.Ахмедов,
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению учёных
степеней, д.б.н., профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день потребность на лекарственные растения в мире увеличивается. Амарант считается самым- ценнейшим растением XXI века. Высокий уровень содержания питательных веществ признан экспертами и учеными ООН. Амарант – перспективная культура, входящий в ряд растений, составляющих основной источник продуктов питания населения планеты. В настоящее время амарант широко распространен в Индии и Китае, выращивается в Юго-Восточной Азии, Африке и Европе. Также, по данным ФАО, он широко культивируется в регионе Анд Южной Америки. в Аргентине, Перу и Боливии¹. На сегодняшний день одним из актуальных проблем является разработка менее вредных для окружающей среды мер борьбы с вредителями и болезнями, встречающимися не только в районах выращивания амаранта, но и с вредными организмами на других сельскохозяйственных культурах.

В мире спрос на амарантовую продукцию, считается высоким, выращивают её в качестве овощного растения, как зерновую культуру, а также выращивают их в коммерческих целях. На качество урожая амаранта и снижение его экспортноспособности негативное влияние оказывают некоторые виды вредителей и болезней, что является важным основанием для проведения научных исследований, направленных на разработку рекомендаций по оптимальным срокам и способам мер борьбы с ними.

В последние годы в нашей республике реализуются последовательные реформы по охране лекарственных растений, рациональному использованию природных ресурсов, созданию плантаций лекарственных растений, и их переработке. Постановление Президента Республики Узбекистан ПП-4670 от 10 апреля 2020 года «О мерах по охране, культивированию выращивания, переработке дикорастущих лекарственных растений и рациональному использованию имеющихся ресурсов» заложило основу для развития ещё одной отрасли сельского хозяйства республики. Благодаря этому решению важное значение приобретают научные исследования по сохранению редких лекарственных растений, произрастающих в дикой природе, по созданию материнских питомников для культивирования, организации выращивания саженцев и семеноводства.

